

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|  |     |
|--|-----|
| <b>G.A.Saparbayeva</b>   |     |
| Madaniyat va san'at instituti talabalarining havaskorlik ssenariylar yozish qobiliyatini shakllantirish.....                       | 313 |
| <b>H.M.Asadov</b>  |     |
| Mavzu, mazmun va lirik qahramon talqini .....  | 318 |
| <b>A.A.Yarkulov</b>  |     |
| Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash to'g'risida ba'zi mulohozalar .....  | 322 |
| <b>H.A.DJurayev, N.N.Nabiyeva, Sh.F.Latipov</b>  |     |
| Abdulla Qodiriy ijodida teatr san`atining o'rni .....  | 329 |
| <b>J.DJ.Ashurov, E.X.Bozоров</b>   |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida "Yadro tibbiyotida radiatsion xavfsizlik" mavzusini o'qitishda muammoli vaziyat metodini qo'llash ..... | 332 |
| <b>D.M.Yuldasheva, S.S.Nishonova</b>   |     |
| Bolalar ertak matnlarining kognitiv-semantik xususiyatlari.....  | 336 |
| <b>M.I.Imomaliyeva</b>   |     |
| Amiriy ijodida Yusuf obrazi.....   | 339 |
| <b>G.M.Qosimova, M.I.Ne'matova</b>   |     |
| Inson tabiati va xarakterini ifodalovchi frazeologizmlarning semantik xususiyatlari.....   | 343 |
| <b>N.Maqsudov</b>  |     |
| Yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini oshirish – demokratik davlatning muhim belgisi .....  | 345 |
| <b>S.A.Olimjonov</b>   |     |
| Erix Mariya remarkning "Uch og'ayni" romanida ifoda va talqin .....  | 347 |
| <b>Z.A.Akbarova, N.Mamasoliyeva</b>  |     |
| O'zbeklar olam Lisoniy manzarasida "Sabr" konsepti.....  | 351 |
| <b>I.S.Mannopov</b>  |     |
| Xoja Ahmad Yassaviy ijodida munozara janri .....   | 354 |

**MAVZU, MAZMUN VA LIRIK QAHRAMON TALQINI (ERKIN VOHIDOV SHE'RIYA TIMISOLIDA)**

**ТЕМА, СОДЕРЖАНИЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛИРИЧЕСКОГО ПЕРСОНАЖА  
(НА ПРИМЕРЕ ПОЭЗИИ ЭРКИНА ВАХИДОВА)**

**THEME, CONTENT AND INTERPRETATION OF A LYRICAL CHARACTER  
(BY THE EXAMPLE OF ERKIN VAKHIDOV'S POETRY)**

**Asadov Maqsud Husenovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Asadov Maqsud Husenovich

– O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti,  
O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo'limi mudiri  
filologiya fanlari doktori,

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada yetuk shoir E. Vohidov she'riyatidagi ishq mavzusi tahlil qilingan. Xususan, oshiq va ma'shuqa obrazi talqinlari orqali lirik qahramonning o'ziga xos ma'naviy olami ochib berilgan. Ishq mavzusining atoqli shoir ijodida tutgan yetakchi mavqei atroflicha tahlil qilingan. Oshiq timsolining ijtimoiy, maishiy hayotning jo'shqin, shiddatkor va faol kurashchisi sifatidagi muhim roli yorqin she'riy misollar orqali dalillangan. Ayniqsa, shoir irik qahramonining oshiq qiyofasidagi poetik chizgilari, yorga sadoqat, vafo, mehr-u oqibat kabi yuksak insoniy fazilatlarini badiiy matn mazmuniga mos tarzda keng yoritilgan. Umuman, maqola orqali E. Vohidov ijodida ishq konsepsiyasi, lirik qahramon – oshiq xarakterining spetsifik xususiyatlari va ma'shuqaning go'zal axloqiy olami haqidagi savollarga javob topish imkoni mavjud.*

**Аннотация**

*В статье анализируется тема любви в поэзии поэта Э. Вахидова. В частности, интерпретация образа влюбленного и возлюбленного раскрывает неповторимый духовный мир лирического героя. Подробно проанализировано ведущее положение темы любви в творчестве известного поэта. На ярких поэтических примерах доказывается важная роль символа влюбленного как восторженного, яростного и активного борца общественной и бытовой жизни. В частности, поэтические строки героя поэта Ирика в образе любовника, высокие человеческие качества, такие как верность, доброта, широко освещаются в соответствии с содержанием художественного текста. В целом через статью можно найти ответы на вопросы о понятии любви, особенностях характера лирического героя-любовника, прекрасном нравственном мире влюбленного в произведениях Э. Вахидов.*

**Abstract**

*This article analyzes the theme of love in the poetry of the poet E. Vakhidov. In particular, the interpretation of the image of the lover and the lover reveals the unique spiritual world of the lyrical hero. The leading position of the theme of love in the work of the famous poet has been thoroughly analyzed. The important role of the symbol of the lover as an enthusiastic, fierce and active fighter of social and domestic life is proved by vivid poetic examples. In particular, the poetic lines of the poet Irik's hero in the form of a lover, high human qualities such as loyalty to the neighbor, loyalty, and kindness are widely covered in accordance with the content of the artistic text. In general, through the article, it is possible to find answers to the questions about the concept of love, the specific characteristics of the character of the lyrical hero - the lover, and the beautiful moral world of the lover in the works of E. Vahidov.*

**Kalit so'zlar:** ishq, oshiq, ma'shuqa, lirik qahramon, she'riyat

**Ключевые слова:** любовь, влюблённый, возлюбленная, лирический герой, поэзия

**Key words:** love, oshik (lover), ma'shuka (lover), lyrical hero, poetry

**KIRISH**

Muhabbat zavqi nurlantirgan har bir oshiq qalbning hayotiy maslagi, umr mazmuni, tiriklik matlab-u maqsadi, shubhasiz, yor sog'inchi, visol orzusi, ma'shuqaning fikru xayoli ila uyg'unadir. Haqiqiy oshiqning fitrat-u tiyatida go'zallik, pokizalik, olijanoblik, fidoyilik kabi dilbar fazilatlar bo'y ko'rsatib, o'zini ko'z-ko'z qilaveradi. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov she'riyatidagi lirik qahramonning oshiqlik qiyofasi haqida so'z borganda, ko'ngildan, eng avvalo, ana shunday nurlu hislar kechishi tabiiy. Chunki oshiqlik shoir lirik qahramonining o'zi, o'zligi, butun borlig'ini ichdan yolqinantirib turadigan hayot quyoshidir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Ishq va oshiqlik masalasi Sharq adabiyotining eng qo'hna va nihoyat darajada qiziqarli mavzusidir. Insonning asli, moyasi, hayot haqiqatlarining yorqin qiyofasi, tiriklik tayanchu asosi ham, aslida, ishq. Adabiyotda u yoki bu darajada e'tibor qaratilgan samimiy muhabbat kechinmalarini, lirik

qahramon – oshiqning musaffo tuyg'ularini chetlab o'tib, atoqli shoir E.Vohidov she'riyatiga aslo baho berib bo'lmaydi. To'g'ri, E.Vohidov haqida, uning favqulodda go'zal va betakror ijodi xususida "ko'p va xo'p" yozilgan. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov ta'kidlaganidek, u «mumtoz adabiyotimizning oltin eshiklari abadiy berkiladi, deb karomat qilingan pallada aruzning tabarruk ostonasida posbon yanglig' paydo bo'ldi» (5, 116). Yoki "hayot go'zalligi, inson hayoti ma'nosi, ma'naviy kamolot yo'llari teran ifodalangan bu she'riyatda buyuk ijodkor ajdodlarimiz asos solgan badiiy yo'l izchil davom ettirildi, yangi, yanada yuksak bosqichga olib chiqildi" (4, 227). Shunisi ham borki, E.Vohidov yangi, ya'ni zamonaviy o'zbek she'riyatida ishq, oshiq va ma'shuqa obraz-tushunchalarining ifoda imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Obraz va obrazlilik badiiy matn tarkibida kechadigan muhim jarayon bo'lib, matnning mazmuni ham, ijodkorning maqsad-muddaosi ham aynan shular orqali yuzaga chiqadi (6, 58). Lirik qahramon esa ijodiy jarayon kashfiyotidir. Professor A.Hayitmetov lirik qahramonni muallif, ya'ni shoirdan butkul uzib olib, talqin qilib bo'lmasligini aytadi (6, 44). R.Inog'omovning yozishicha, E.Vohidovning lirik qahramoni nafaqat shoir "men"ligining, balki she'riyatga muhabbati bo'lgan har qanday pokdil insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasini zarra-zarra, qatra-qatra ifoda etadi (3, 31). O'zining bir qator she'riy kitoblari, "Faust", "Fors taronalari" singari tarjima asarlari, adabiy-badiiy etyudlari, doston-u dramalari bilan o'zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim o'rin egallagan E.Vohidov she'riyatidagi lirik qahramon, ayniqsa, lirik qahramon tabiatiga xos oshiqlik fazilatini o'rganish ham muhimdir. Bu orqali atoqli shoir shaxsiyatiga, qolaversa, uning betakror ijodiga yanada teranroq nazar tashlash imkoni paydo bo'lishi shubhasiz.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

E.Vohidovning o'lmas ijodini ishq tushunchasiz sira-sira tasavvur etib bo'lmaydi. Lirik asarlarda tuyg'u va o'ylari tasvirlangan shaxs – lirik qahramon ko'pincha shoirning o'zini tamsil qiladi (6, 72). Chunki she'rda shoirning o'ylari, sezimlari, tuyg'ulari, kayfiyat ruhiyati badiiy ifoda topadi.

Masalan

Mulki borliq ichra bir mahal,  
Ko'rsizgina olam yaralgan.  
Bermoq uchun dunyoga sayqal,  
Olam aro odam yaralgan.  
Shundan beri inson tinmayin,  
Shu yer uzra ter to'kar hamon.  
Yerni go'zal qilgani sayin,  
Go'zal bo'lar o'zi ham inson (2, 221).

Lirik qahramon – mehnat kishisi. U haqiqiy go'zallikni chinakam insoniy fazilatlar egasigina yaratishga qodirligiga sidqidildan ishonadi. E.Vohidov she'riyatida odamning "odam"lik maqomi, avvalo, uning shijoati, mehnatsevarligi, kurashchanligi bilan baholanadi. Chin ma'nodagi go'zallik olam, borliq, yurt, mahalla-ko'y chiroyi, osoyishtaligidir, degan ijtimoiy fikr-qarashlar ham she'rda "go'zal" so'zining takrori orqali yorqin ifodalangan. Takror muallifning asl muddaosi, ya'ni she'riy misralarda qaysi so'zga asosiy "yuk" tushayotganini anglatish barobarida, o'quvchiga fikr mantig'i ana shu kalima orqali ochilishini bildiradi, ishora qiladi. Umuman, shoirning lirik qahramoni hech bir his-tuyg'uni shunchaki oddiy bayon qilmaydi. Biror badiiy vosita yoki poetik san'atga o'rab, jonli va ta'sirchan ifodalaydi. Buni keyingi tahlillarimiz ham tasdiqlaydi.

E.Vohidov lirik qahramonining "ma'shuqa"si betakror go'zalligi, latofat-u chiroyi, ma'naviy qiyofasining o'ziga xosligi hamda sitamkorligi, g'urur va hamiyatda sobitligi, qat'iyati bilan mumtoz she'riyatimizda tavsiflangan yor obrazini xayolga keltiradi. Mumtoz asarlarda barcha nuqson-u kentikliklardan butkul xoli bo'lgan "pok go'zallik dahosi" – ma'shuqaning shoir idealidagi mukammal qiyofasini ko'ramiz. Jumladan, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy yor tasvirini jonlantirib, "Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin" deya o'z hayratini "qosh" va "ko'z" poetik timsollari vositasida yuzaga chiqargan. E.Vohidovning "oshig"i ham ulug' salafiga izdosh. Tavze' san'ati, ya'ni alliteratsiyaning betakror namunasi bo'lgan quyidagi she'r fikrimizning yaqqol isbotidir:

Qaro qoshing,  
qalam qoshing,  
Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.  
Qilur qatlimga qasd  
qayrab ---  
Qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda qalb qushin qiynab,  
 Qanot qoqmoqqa qo'ymaysan.  
 Qarab ko'ngil qiyo,  
 Qalbimni qizdirlsin  
 quyoshing, qiz.[2, 25]

E.Vohidov "oshig"ining "ma'shuqa"si murakkab xarakterli obraz. Uning tabiatida halimlik va beparvolik, mehr va qahr, samimiyat va noz-u karashma o'zaro uyg'unlashadi. Shoir she'rlarida ma'shuqaning bir necha fazilatlarini yorqin tasvirlanganki, biz ularni quyidagicha tasnif qilishimiz mumkin:

1. Tashqi qiyofa tasviri. Qosh, ko'z, kiprik, soch, yuz, lab, qaddi-qomat go'zalligini tasvirlashdan tashqari, ma'shuqaning bejirim kiyimlari, xatti-harakati ham bu she'rlarda bir tizim bo'lib keladi. Shoirning lirik qahramoni – "oshiq" o'ta sinchkov. U yoridagi har bir o'zgarishni daqiq nigoh ila payqaydi, undan zavqlanadi, jo'shqin muhabbat bilan qalamga oladi. Jumladan, yuqoridagi she'rda qora, qayrilma, qalam sifatlashlari berilgan yorning qoshi uning go'zal chehrasini ham ko'z oldimizda gavdalantiradi. Adabiyotda yor – ma'shuqaning dilga o't soluvchi nigohlari shoirlar tomonidan turlicha badiiy talqin qilingan, ammo "qiyo", ya'ni ko'z qiri bilan yoriga boqqan ma'shuqa obrazi faqat E.Vohidov poetik tasavvuriga xosdir. Uning noz-u karashmasi – quyoshi oshiqning hayot nuri, qalb yog'dusi, umr manzillarini yorituvchi mayoqdir. Yor go'zalligining ifodasida lirik qahramon ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiyning "oshig"i bilan maslakdosh. Masalan, buyuk mutafakkir shoir o'z g'azallaridan birida shunday yozgan:

Tovushkim, tom toshidin kelsa dermen bag'ritoshimdur,  
 Eshikdin soya kirgach, dermenki, ul quyoshimdur!

Mazkur baytda hijron azobida o'rtangan o'tli ko'ngil sohibining holati badiiy tasvirlangan. Ammo E.Vohidov she'riyatidagi "oshiq" o'z samimiyati, jo'shqin kayfiyati va ko'ngil izhorini yoning latofati, uning chiroyidan zavqlanib ifoda etadi.

2. Ma'naviy-axloqiy qiyofa tavsifi. Ma'shuqaning ichki olami – ruhiyati, beg'ubor tabiati, o'ziga xos xarakter xususiyatlari oshiq kechinmalari fonida g'oyatda ta'sirli yoritiladi.

Kel, istasang oy halqasini  
 Qulog'ingga taqay, dilbarim.  
 Xushnud etsa yulduzlar seni,  
 Etagingga to'kayin barin.  
 Faqat, jonim, o'zingni zinhor  
 Yulduzlarga etmagil qiyos.  
 Yonib yasha to tanda jon bor  
 Quyosh bo'lg'in, azizim, quyosh! (2, 67)

E.Vohidov "oshig"ining "ma'shuqa"si – hayotsevar, nekbin qahramon. U jo'shqin hayot quchog'ida, yaratish va bunyodkorlik kayfiyati bilan yashaydi. Unda biror tushkunlik, bu hayotning o'tkinchi g'am-anduhlaridan ozorlanish, turli mashaqqatu qiyinchiliklarga yon berish ruhi sira sezilmaydi. Aksincha, ma'shuqa shiddatkor, qalban uyg'oq, ruhan hamisha tetik, ertangi yorug' kunlarga ishonchi o'ta yuksak tasvirlanganki, oshiqni unga bog'laydigan, muhabbatini olovlantiradigan yana bir xususiyat – ana shu. Shoir she'rlarida oshiq va ma'shuqa obrazlari biri-birini to'ldiradi, biri ikkinchisini yaxshilikka, ezgulikka, mehnatsevarlikka undaydi, ruhlantiradi. Ma'shuqa – samimiyat egasi, sof insoniy fazilatlar sohibasi. Oshiq uni oyu yulduzlardan-da ustun biladi. Faqat va faqat quyoshga tenglashtiradi. Chunki Quyosh oshiq uchun muhabbatining o'lmas va barhayot timsolidir. Yuqoridagi she'riy parchada ham o'xshatishlar, jonlantirishlar, tanosib, umuman, badiiy vositalardan unumli va samarali istifoda etilgan. Oshiqning yorga bo'lgan cheksiz hurmati, e'zozu rag'bati, mulozamati, e'tirofu e'tibori nihoyatda hayotiy ifodalangan. Bu samimiy munosabatlar o'quvchini to'lqinlantirishi, o'ziga maftun qilishi va shoir ijodiga ibrat nazari bilan boqishga undashi tabiiy.

### XULOSA

Darhaqiqat, hassos shoir E.Vohidov o'z asarlarida insoniylik ma'no-mohiyatini samimiy muhabbat mavzusi bilan uyg'unlikda tasvirlaydi. Bu she'rlar xoh vatan, tabiat mavzusida bo'lsin, xoh insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat tarannum etilgan bo'lsin, ularda lirik qahramonning hayotga tashna, olijanob qiyofasi bo'rtib ko'rinib turadi. Oshiqona mavzudagi she'rlari orqali shoir, avvalo, insonni

ulug'laydi. Uning go'zal fazilatlarini mohirlik bilan badiiy tasvirlaydi. Chunki lirik qahramon – oshiq ham, aslida, ana shunday xulq-atvorga, havas qilsa arzigulik xislatlarga ega bo'lgan yorqin shaxsdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev yetuk shoir E.Vohidov haqida shunday degan edilar: «O'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga benazir hissa qo'shgan atoqli shoir va adib, taniqli davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning ijodiy merosi yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega» (1, 176). Yuqoridagi tahlillarimizdan ma'lum bo'ladiki, birgina "oshiq" va "ma'shuqa" obrazlari misolida ham E.Vohidov ijodi biz uchun ibrat maktabi bo'la oladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 454 б. (Mirziyoev Sh. The approval of our people is the highest assessment given to our activities. - Tashkent: Uzbekistan, 2018. - 454 p.)
2. Воҳидов Э. Муҳаббат. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982. – 342 б. (Vahidov E. Love. - Tashkent: Literature and Art, 1982. - 342 p.)
3. Иноғомов Р. Шоирлик қисмати. – Тошкент, 1999. – 140 б. (Inoghomov R. The fate of poetry. - Tashkent, 1999. - 140 p.)
4. Иноғомов Р. Ғафуров И. Воҳидов, Эркин. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 912 б. (Inoghomov R. Gafurov I. Vahidov, Erkin. National encyclopedia of Uzbekistan. Volume 2. - Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan. - 912 p.)
5. Шокирова Р. Ўзбек адиблари. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2016. – 200 б. (Shokirova R. Uzbek writers. Tashkent: Literature and Art, 2016. – 200 p.)
6. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: Фан, 1965. – 278 б. (Hayitmetov A. Navoi lyrics. - Tashkent: Science, 1965. - 278 p.)